

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН МУҲАНДИСЛИК-ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**МУҲАНДИСЛИК-ТЕХНИКА ФАКУЛЬТЕТИ**

**ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА  
КАФЕДРАСИ**

**Битирувчиси**

**Адашев Алишернинг**

**Наманганда муқобил энергия ресурсларини баҳолаш мавзусида**

**ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИ**

Наманган -2016 й.

## MUNDARIJA

Kirish.

### **1.bob. Muqobil energiyadan foydalanishning hozirgi holati.**

1.1.Quyosh energiyasidan foydalanish.

1.2.Shamol energiyasidan foydalanish.

1.3.Biogazdan foydalanish.

### **2.bob. Namangan viloyatida muqobil energiya resurslari.**

2.1.Quyosh radiatsiyasi.

2.2.Shamol energetikasi.

2.3.Biogaz olish imkoniyatlari.

\*Chorvachilik chiqindisidan olish mumkin bo'lgan biogaz.

\*O'simlik biomassasidan olish mumkin bo'lgan biogaz.

2.4.Muqobil energiya resurslarini baholash.

### **3.Xulosa.**

### **4.Foydalanilgan adabiyotlar.**

### **5.Ilovalar.**

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Muqobil energiya manbalari masalasi ko'p yillardan beri kelajak energetik tizimlarini ishlab chiqish va yaratish sohasining yetakchi mutaxassislarini o'ylantirib kelmoqda. Ko'pgina olimlarning bashoratlariga ko'ra, yaqin 60-70 yillarda ko'mir, tabiiy gaz va neft zahiralari butunlay tugashi mumkin. Energetik inqiroz xavf solayotganligi tufayli dunyoning ko'pgina mamlakatlari bugundanoq zamonaviy energiyani tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqishni jadallashtirmoqda, muqobil energiya manbalarini topish ishlari to'xtovsiz olib borilmoqda, qonunchilik bazasi ishlab chiqilmoqda va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hayotimizga tadbiq etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston uchun energetik mustaqillikka erishish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda elektr energiyasining 90%i issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Ularni ishlatish jarayonida ancha miqdorda uglerod dioksidi ajralib chiqadi.

Respublika tomonidan xalqaro hujjatlar, jumladan, Kioto protokoli bo'yicha majburiyatlarni bajarish yoqiladigan yoqilg'i miqdorini asta-sekinlik bilan kamaytirishni talab qiladi. Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosini ham hisobga olish kerak.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek - "..... qishloq joylarda energiya ta'minotining beqarorligiga, ishlab chiqarish va yo'l infratuzilmasining kerakli darajada rivojlanmaganiga, tekshiruvlarning ko'pligiga, shuningdek, joylarda ijro intizomining nisbatan pastligiga haligacha duch kelmoqda"<sup>1</sup>.

Shunday qilib, tiklanadigan energiya resurslarini, xususan, shamol va quyosh energiyasini o'zlashtirish hozirgi kunda eng istiqbolli hisoblanadi. Bu esa O'rta Osiyodagi, jumladan Namangan viloyatidagi quyosh, shamol va kichik gidroenergetika kabi noan'anaviy energiya resurslarini tadqiq qilishning dolzarbligini belgilab beradi.

---

<sup>1</sup>2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" gazetasi 2014 yil 18 yanvar №13 (5953)

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** BMning asosiy maqsadi hozirgi sharoitda energetik, ekologik, iqtisodiy havsizlikni ta'minlash borasida Namangan viloyati noan'anaviy energetika resurslarini tahlil etish va uning hozirgi holatini baholashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Muqobil energiyadan foydalanishning hozirgi holatini taxlil etish;
2. Quyosh energiyasidan foydalanishning afzalliklarini o'rganish;
3. Viloyatdagi mavjud muqobil energiya resurslarini baholash va kerakli tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Ishning o'rganilish darajasining qiyosiy taxlili.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan muqobil energiya manbalari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan davra suhbatlari tashkil etildi. Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, tegishli vazirlik va idoralar, muqobil energiya texnologiyalari ishlab chiqaruvchi korxonalar vakillari, olimlar ishtirok etdi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari S.Tursunov, O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, "Fizika-Quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi Fizika texnika institutining direktori S.Lutfullayev va boshqalar Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida energiya tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish va qo'llashga alohida e'tibor qaratilayotgani va bu borada sezilarli siljishlarga erishayotganligini alohida takidladilar.

Mutaxassislarning fikricha, O'zbekistonda kichik gidrostansiya, quyosh, shamol, biomassa resurslari va boshqa energiya turlaridan foydalanish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Quyoshli kunlar, shamol muntazam esib turadigan ochiq hududlarning ko'pligi muqobil energiya manbalari orqali iqtisodiyot tarmoqlarini hamda aholini uzluksiz energiya bilan ta'minlash imkoniyatini kengaytirib, atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda elektr energiyasi bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Elektr

energetikasi to'g'risida", "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qonunlari bilan tartibga solinmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2013-yil 1-martda qabul qilingan "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni energetika yo'nalishidagi keng ko'lamli tadqiqot ishlari samaradorligini yanada oshirish hamda quyosh energiyasidan foydalanishda muhim dasturiamal bo'layotir. Yurtimizda muqobil energiya manbalari ishlab chiquvchilar hamda undan foydalanuvchilarga soliq va bojxona imtiyozlari berilgan.

Energiyani qat'iy tejash tartibi, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish, qayta tiklanadigan noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va tatbiq etish masalalari doimiy e'tiborda.

Davra suhbatida energiya samaradorligini ta'minlashda innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, energiyaning muqobil turlarini rivojlantirish orqali raqobatli energetika bozorini tashkil etishni rag'batlantirishga doir qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan fikr almashildi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar barqaror rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etishga qaratilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan va butun dunyoda keng e'tirof etilgan taraqqiyotning «o'zbek modeli» bu boradagi ishlarda mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu modelning asosiy maqsadi kuchli milliy iqtisodiyotni tashkil etish, yangi yuqori texnologiyali korxonalar va ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun resurslarni tejash imkonini beradigan zamonaviy texnologiya hamda uslublarni joriy qilishdan iborat. Shu bois yoqilg'i-energetika kompleksini

rivojlantirish, jumladan, resurslarni tejaydigan yangi texnologiyalarni joriy etish hisobidan taraqqiy ettirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimizning to'la energetika mustaqilligiga erishgani ham ushbu yo'nalishdagi ishlar yuksak samaralar berayotganidan dalolatdir.

Elektr energetikasi sohasida Tollimarjon issiqlik elektr stantsiyasida quvvati 450 megavatt bo'lgan 2 ta bug'-gaz qurilmasini barpo etish yo'li bilan kengaytirish ishlari olib boriladi. Toshkent issiqlik elektr stantsiyasida quvvati 370 megavatt bo'lgan bug'-gaz qurilmasi ishga tushiriladi. Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida quvvati 450 megavatt bo'lgan ikkinchi bug'-gaz qurilmasini barpo etish orqali kengaytirish ishlari bajariladi<sup>2</sup>.

Prezidentimizning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan «2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarori qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini faollashtirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qarorda sanoat tarmoqlari, shu jumladan energetika sohasida tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga doir muhim vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasining «Obod turmush yili» Davlat dasturi, shuningdek, davlatimiz rahbarining 2013-yil 1-martda qabul qilingan «Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida energiya tejaydigan tizimlarni joriy etish, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu va boshqa dasturiy hujjatlar energiya iste'moli sohasida yuzaga kelayotgan qator masalalarni hal etish, noan'anaviy energetika resurslari, jumladan, quyosh energiyasidan keng

---

<sup>2</sup>2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" gazetasi 2014 yil 18 yanvar №13 (5953)

ko'lamda foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratish, quyosh panellari uchun tegishli uskunalari, butlovchi va ehtiyot qismlarni sanoatlashtirilgan holda ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Namangan viloyati iqlimiy va gidroenergetik resurslarini o'rganish, tahlil etish va baholash muqobil energiya turlaridan foydalanish sohasidagi dastlabki tadqiqot ishi hisoblanadi.

**Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.** Viloyatda qayta tiklanadigan, noan'anaviy energiya resurslaridan foydalanishning ayni vaqtdagi ahamiyati shundaki, gidroenergetika va issiqlik energetikasidan tashqari boshqa turdagi resurslardan hozirgi vaqtda xalq xo'jaligida keng foydalanilmayapti. Natijalar viloyatda kichik hajmda bo'lsa ham noan'anaviy energetik resurslar mavjudligini, ulardan xalq xo'jaligida foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

**BMIning tuzilishi va hajmi.** Malakaviy ish kirish, 2 ta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 3 ta rasm va 13 ta jadvalni o'z ichiga oladi. Umumiy hajmi 58 bet.

Ishning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ishning obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati bayon etilgan

**Birinchi bobda** Muqobil energiyadan foydalanishning hozirgi holati yoritilgan.

**Ikkinchi bobda** Namangan viloyatida muqobil energiya resurslari, ya'ni quyosh radiatsiyasi, shamol energetikasi, chorvachilik, o'simliklardan biogaz olish imkoniyatlari va muqobil energiya resurslarini baholash masalalari yoritilgan.

**Xulosa** qismida BMI ni bajarish jarayonida olingan natijalar umumlashtirilgan, taklif va ilmiy-amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

# **1-BOB. MUQOBIL ENERGIYADAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI**

## **1.1.Quyosh energiyasidan foydalanish**

Quyosh energiyasini rivojlantirish an'anaviy elektr quvvati ishlab chiqarishning muqobili sifatida katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda quyosh energetikasini rivojlantirish bo'yicha ko'plab muhokamalar bo'lib o'tmoqda. Darhaqiqat, O'zbekistonda quyoshdan elektr quvvati olishning juda katta potentsiali mavjud, uning bir yillik umumiy qiymati 1550-1950 kVt\*s/m<sup>2</sup> deb baholanmoqda. Chindan ham elektr quvvati hajmi juda katta. Mamlakat faqat quyosh nuri hisobiga o'zini energiya bilan to'liq ta'minlanishi mumkin. Lekin hamma gap ushbu elektr quvvatini ishlab chiqarish qancha pulga tushishidadir.

Tabiiy gazning hozirgi eksport bahosiga qarab binolarni isitish uchun quyosh kollektorlarini joriy qilishga sarmoya yotqizish foyda keltirishini aniq ishonch bilan aytish mumkin. Agar rentabellik tahlili mamlakatda mavjud baholardan kelib chiqib gapiriladigan bo'lsa, ayni paytda quyosh kollektorlaridan foydalangan holda isitishning aralash tizimlariga o'tish ichki issiqlik quvvati ishlab chiqaruvchilarga foydali bo'lmasligi ayonlashadi.

Fotoelektrik stantsiyalar yordamida elektr quvvati olish uchun quyosh energetikasini rivojlantirish hozirgi paytda juda qimmatga tushadi va bunga faqat beli baquvvat sarmoyadorlargina erishishi mumkin. Fotoelektrik stantsiyaning o'rtacha narxi olinayotgan 1 Vatt elektr quvvati uchun 5-12 dollarga aylanadi. 1 kVtlik fotoelektrik stantsiyaning alohida qurilmasi o'rtacha 4000 AQSH dollaridan ziyod xarajatga tushadi. Bunday qurilmalar bozori juda kam rivojlangan, uning iste'molchilari qatoriga barqaror elektr quvvati olishni istagan shaxsiy uy xo'jaliklari kam, ammo doimiy elektr quvvatiga ehtiyoji bo'lgan ayrim biznes turlari, jumladan, kichik suv nasoslari ishlashi uchun zarur bo'lgan barqaror elektr quvvatiga muhtoj cho'pon va bog'dorchilik xo'jaliklari kiradi. Biroq



aksariyat kichik biznes korxonalarining ehtiyoji kichik fotoelektrik va duragay (masalan, shamol bilan ishlaydigan) stantsiyalarning ishlab chiqarish quvvatidan oshadi. Oddiy tikuvchilik sexi meva va sabzavotni qayta ishlash sexi yoki sovitish qurilmalari bunday kam elektr quvvatida ishlay olmaydi, katta fotoelektrik stantsiyalarni o'rnatish esa juda qimmatga tushadi.

Quyosh nuridan elektr quvvati ishlab chiqarish uchun yirik sarmoyadorlarning juda ko'p mablag'i va davlatning har tomonlama qo'llab-quvvatlashi talab etiladi. Bu fotoelektrik stantsiyalarning texnik ishlab chiqarish quvvati oshib, narxi kamayadigan, quyosh energiyasini ishlab chiqarish va iste'mol qilishni rag'batlantiruvchi qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinadigan kelajakda bo'ladigan ishdir.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini bilishdan avval quyosh to'g'risida qisqacha ma'lumot bilan tanishib chiksak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyosh — cho'g'langan g'oyat katta gaz shardir: Bu sharning diametri 1400000 km ga yaqin, ya'ni Yer diametridan qariyb 110 marta kattadir.

Ulkan energiya manbai quyoshning tuzilishi quyidagicha:

Quyosh yadrosi 1500000 km.ga teng, yadro markazidagi xarorat 14-20 mln.C gacha, yadroda har sekuntda taxminan 4,2 mln tonna modda issiqlik nurga aylanadi. Bu quyoshning  $2 \cdot 10^{27}$  tonna massasi oldida juda ham kichik miqdordir.

Quyosh tojlari. Quyoshning eng chetki qobig'i bo'lib, uyerdagi harorat 5-6 mln.C ga teng. Quyosh tojlarini quyosh to'la tutilganda qurollanmagan ko'z bilan ko'rish mumkin.

Fotosfera. Quyoshning nur chiqaruvchi qatlami bo'lib, uni ko'rinuvchi sirtini hosil qilgan. Qalinligi 320 km. Harorati 5800.C

Xromosfera. Tashqi qobig'i bo'lib, uning qalinligi 10 000 km. Harorat esa 15000 C gacha ortib turadi.

Quyosh - quyosh sistemasining barcha yig'indi massasining 99,86 %ini tashkil qilgan. Quyosh nurlari yerdagi hayotni quvvatlab turadi. Quyoshning

tarkibi jihatidan: quyosh massasining 73 %ini va hajmining 92%ini vodorod, quyosh massasining taxminan 25 %i hajmining esa 7%ini geliy va boshqa elementlar: temir, nikel, kislorod, azot, kremniy, oltingugurt, magniy, uglerod, neon, kalsiy va xromlar tashkil qilgan. Ularning ulushi 1 %dan kamroq.

Hisob-kitoblar va kuzatishlarning ko'rsatishicha, Quyoshdagi 1 mln. dona vodorod atomiga 98 ming dona geliy, 851 dona kislorod, 398 dona uglerod, 123 dona neon, 100 dona azot, 47 dona temir, 38 dona magniy, 35 kremniy, 16 dona oltingugurt, 4 dona argon, 3 dona alyuminiy va 2 donadan nikel, natriy, kalsiy va boshqa elementlarning atomlari to'g'ri keladi.

Quyosh nurining quvvati quyosh doimiysi bilan harakterlanadi. Quyosh doimiysi quyosh nurlariga perpendikulyar bo'lgan birlik yuza orqali o'tayotgan energiya miqdoridir. Bu doimiy taxminan  $1370 \text{ Vt/m}^2$  ga teng. Yer atmosferasidan o'tayotgan Quyosh nurlari atmosferada taxminan  $370 \text{ Vt/m}^2$  energiyasini yo'qotadi. Yer sirtigacha esa faqatgina  $1000 \text{ Vt/m}^2$  (havo ochiq bo'lgan kunda Quyosh cho'qqida turganda) energiyasi yetib keladi. Bu energiyadan turli tabiiy va sun'iy jarayonlarda foydalanish mumkin.

Quyosh sirtining temperaturasi  $6000 \text{ C}$  dan ortiq, ya'ni parovoz o'chog'idagi toblanib turgan olov temperaturasidan olti marta ortiq. Quyosh nurlanishining ravshanligi elektr yoyi alangasining ravshanligidan 10 marta ortiq.

Quyoshning ichki qatlamlarida temperatura 20 million gradusgacha yetadi. Quyoshdan Yergacha bo'lgan o'rtacha masofa 150 mln.km.ga yaqin, ya'ni soatiga 70 km tezlik bilan yuradigan avtomashina bu masofani, to'xtovsiz yurib o'tishi uchun 247,8 yildan ortiqroq vaqt kerak bo'lar edi.

Sekundiga 300 ming km tezlik bilan tarqaladigan yo'ruglik Quyoshdan Yerga 8 minut 20 sekundda yetib keladi. Quyoshdan har bir sutkada ajralib chiqadigan energiya miqdori 13-10 milliard tonna toshko'mirni yoqqanda beradigan energiya miqdoriga teng. Quyosh sirtining bir kvadrat metri nurlanishining quvvati 60 ming kilovatga yaqin.

Quyosh energiyasining manbai uning bag'rida sodir bo'lib turadigan termoyadro reaksiyasi, ya'ni vodorodning geliyga aylanish reaksiyasi (vodorod yadrosining geliy yadrosiga aylanishi)dir. 1 kg vodorodning geliyga aylanishida chiqadigan issiqlik miqdori 20 ming tonna toshko'mir yonganda chiqadigan energiyaga teng. Quyosh massasining 73% dan ko'proq qismi vodoroddan iborat. Ana shunga asoslanib, „Quyosh yana necha yil davomida energiya berishi mumkin?“ degan savolga: Quyosh bundan keyin ham bir necha milliard yillar energiya beradi deb javob berish mumkin. Agar yer sirtining faqat quruqlik qismini e'tiborga oladigan bo'lsak, uning bu qismiga 12 ming milliard kun energiya keladi.

Agar bu energiyaning faqat bir foizidagina foydalana olsak edi, bu energiya har biri 100 ming kilovatt quvvatga ega bo'lgan 5 million 200 mingta xudud elektrostantsiyalarining umumiy quvvatini tashkil etar edi (bunda quyosh issiqlik energiyasini elektr energiyaga aylantirishdagi f. i. k. hisobga olinmaydi).

Mamlakatimiz xalq xo'jaligida yoqilg'i ishlatish yildan-yilga oshib bormoqda. SHu sababli yoqilg'ini tejash masalalari bilan bir qatorda quyosh energiyasidan foydalanish masalasi ham qo'yilmoqda. Bu energiyani elektr energiyasiga aylantirish mumkin va undan suvni isitish, qaynatish va chuchuklashtirish maqsadlarida, ovqat tayyorlashda, paxta, meva, sabzavot, tamaki, moy va boshqalarni quritishda foydalanish mumkin,

Quyosh nurlarining energiyasidan qishda uylarni isitishda, sun'iy sovuqlik hosil qilishda, bug' hosil qilishda, kuch qurilmalarini ishlatish va shunga o'xshashlarda foydalanish ham mumkin.

Bu sharoitlarda maktablarda, akademik litsey, stadion, suv stantsiyalari, dam olish uylari, fermer xo'jaliklari, dala hovlilari va xokazolardagi dush qurilmalari uchun, suv isitgichlardan foydalanish, shuningdek, paxta quritish sexlari, meva va sabzavot, pilla, g'alla quritishlarida ishlatiladigan xilma-xil jihozlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan, ayniqsa, quyosh energiyasidan foydalanish borasida boy tajriba to'plandi. Serquyosh

o'lkamizda yilning 320 kundan ko'prog'ida quyosh charaqlab turadi. Quyosh energiyasining yillik salohiyati esa neft ekvivalentida 51 milliard tonnadan oshadi. Bu quyosh energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarish, issiq suv va isitish tizimi bilan ta'minlash, quduqdan suv olish va uni chuchuklashtirish, meva-sabzavotlarni quritish hamda boshqa ko'plab maqsadlarda keng ko'lamda foydalanish imkonini beradi.

Mamlakatimizda quyosh energiyasini ishlab chiqarish hamda undan foydalanish uchun zarur ko'p tarmoqli ilmiy-tajriba va moddiy-texnik baza samarali faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida quyosh energiyasini yarim o'tkazadigan fotoo'zgartirgichlarni ishlab chiqish va ularning nazariy asoslarini yaratish, turli maqsadlarga mo'ljallangan bioenergetika manbalari, qurama geliotexnik qurilmalar, mustaqil ta'minot manbalarini loyihalashtirish, yuqori haroratli geliomaterialshunoslik sohasida ilmiy maktablar shakllantirilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab geliotizimlar ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. "Fizika-Quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi, «Eko-energiya» ilmiy-tadbiqiy markazi, "Mir Solar" mas'uliyati cheklangan jamiyati va boshqalar shular jumlasidandir. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'llanilmoqda. Uy-joy kommunal xo'jaligida quyosh energiyasi elementlarini joriy etishga ham katta e'tibor berilmoqda. Chunonchi, qishloq joylarda namunali loyihalar asosida barpo etilayotgan ayrim uylarda quyosh va shamol energiyasida ishlaydigan gibridd tizimlar o'rnatilmoqda. Yaqin kelajakda mamlakatimizning borish qiyin bo'lgan tumanlarida joylashgan umumta'lim va kasb-hunar o'quv muassasalarini ham quyosh energiyasi elementlari bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi loyihasi bilan tanishish maqsadida Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan forum ishtirokchilari ham bunday texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara berishini qayd etdi. Ular mamlakatimizda muqobil energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi mavjud imkoniyatlar va olimlarimizning bu boradagi eng so'nggi yutuqlarini yuksak

baholadi, O'zbekistonning xorijiy sheriklar bilan samarali hamkorlik qilayotganini ta'kidladi. Koreya Respublikasi savdo, sanoat va energetika vazirining birinchi o'rinbosari Xan Chjin Xyon Koreya Respublikasi O'zbekistonda Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyoo kompleksini qurish va "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasini rivojlantirishga oid muhim investitsiya loyihalari va dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etayotganini ta'kidladi. Mamlakatimiz muqobil energiya manbalari sohasida katta salohiyatga ega ekani e'tiborga olinib, quyosh energetikasini rivojlantirish, shu jumladan quyosh elektr stansiyalarini bunyod etish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fizika-Quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining Fizika-texnika instituti olimlarining ishlanmalari forum ishtirokchilarida alohida qiziqish uyg'otdi. Bu yerda qattiq jism nazariyasi, yuksak texnologiyalar va yarim o'tkazgichlar, quyosh energiyasini o'zgartirish fizikasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2013-yil 1-martda qabul qilingan Xalqaro quyosh energiyasi institutini tashkil qilishga oid qaroriga muvofiq, Fanlar akademiyasining "Fizika-Quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi negizida Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari ishtirokida Xalqaro quyosh energiyasi instituti tashkil etildi. Quyosh energiyasidan sanoat ko'lamida foydalanish sohasida yuqori texnologik ishlanmalarni amalga oshirish, ilg'or va iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalar asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohada quyosh energiyasi imkoniyatlaridan amaliy foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlash mazkur ilmiy dargohning asosiy faoliyat yo'nalishlaridandir. Shuningdek, quyosh energetikasidan iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalanish, shu jumladan maxsus materiallarni sintez qilish va ularga termik ishlov berish texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, quyosh energetikasi sohasidagi yirik loyihalar bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish ham institutning vazifalari sirasiga kiradi.

Olimlarimizning yuqori haroratli materialshunoslik sohasidagi yutuqlari ham forum qatnashchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Ekspertlar Toshkent viloyatining Parkent tumanida joylashgan 1 MVt issiqlik quvvatiga ega katta quyosh pechi barpo etilgan «Quyosh» ob'ektini borib ko'rdilar. «Fizika-Quyosh» majmuining ushbu noyob bazasi quyoshni har tomonlama kuzatish, nazariy va tajriba tadqiqotlari bilan shug'ullanish imkonini beradi.

O'zbekiston quyosh energiyasidan foydalanish borasida ulkan salohiyatga ega, – dedi Brandenburg instituti prezidenti, professor Kloze Edgar (Germaniya). O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha ilg'or tizimlar ishlab chiqarish imkonini beradigan texnologik baza mavjud. Hamkorligimiz yo'lga qo'yilgan "Fizika-Quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasini borib ko'rganimizdan so'ng bunga yana bir bor amin bo'ldik. O'zbekistonlik hamkasblarimiz bilan hamkorlikda keyinchalik boshqa mamlakatlarda ham joriy etish maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqmoqdamiz.


Xalqaro ekspertlar quyosh energetikasini rivojlantirish istiqbollari va ushbu sohadagi texnologiyalarni taraqqiy ettirish borasidagi so'nggi tendensiyalar haqida atroflicha so'z yuritdilar. Jumladan, Seviliya universiteti professori Eduardo Galvanning (Ispaniya) fotoelektrik texnologiyalarni rivojlantirish tendensiyalari, integratsiya va tahdidlar masalalari, Yevropa quyosh issiqlik energiyasi uyushmasi boshqaruvi direktori Marsel Bialning (Belgiya) quyosh issiqlik energiyasining istiqbollari, "Solar Technology Advisors" kompaniyasi bosh ijrochi direktori Yorge Servertning (Ispaniya) O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, "Alstom" kompaniyasining strategiya va biznesni rivojlantirish bo'yicha menejeri Paolo Montresorning KSE elektr energiyasining muhim ahamiyatiga doir ma'ruzalari tinglandi.

Osiyo quyosh energiyasi forumining yalpi majlisida so'zga chiqqan Xalqaro quyosh energiyasi institutining direktori Alim Hakimov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti Sa'dulla Lutfullayev va boshqalar O'zbekiston olimlarining muqobil energiya manbalarini, shu jumladan, quyosh

energiyasini rivojlantirish sohasida katta yutuqlari va noyob ishlanmalarini qayd etdi.

O'zbekistonning tekisliklarida quyoshning yalpi radiatsiyasi yil davomida shimolda  $4800 \text{ mDj/m}^2$  dan janubda  $6500 \text{ mDj/m}^2$  gacha o'zgaradi. Uning o'zgarishi mavsumiy bo'lib, qish oylarida surunkali bulutli kunlar bo'lgani tufayli quyosh nur sochishi imkoniyat darajasidan deyarli ikki barobar kam bo'ladi; shimolda kunning yorug' qismi 8 soatni, janubda 9,5 soatni tashkil etsada, bulut tufayli quyoshning ko'rinishi 3-5 soatdan oshmaydi. Yozda kunning uzunligi shimolda 16,5 soatni, janubda 15 soatni tashkil etadi. Bunda quyosh nur sochib turgan vaqt kuniga 10 soatdan 13 soatgacha davom etadi.

Gorizontal tekislikka tushadigan quyosh radiatsiyasining oylik yigindisi miqdori ham yil davomida keskin o'zgaradi. Masalan, Toshkent atrofida u quyidagicha taqsimlanadi: yanvarda - 175, aprelda - 540, iyulda - 845 va oktyabrda -  $370 \text{ mDj/m}^2$ . Yalpi radiatsiyaning kunlik miqdori ham shunday o'zgarishda bo'ladi va qish oylarida shimolda  $6 \text{ mDj/m}^2$  dan janubda  $8 \text{ mDj/m}^2$  gacha o'zgaradi. Uning miqdori tegishli ravishda aprel oyida 14 va 20  $\text{mDj/m}^2$  ga, iyul oyida 24 va 28  $\text{mDj/m}^2$  ga teng bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Quyosh radiatsiyasining yillik yig'indisi ( $Q \text{ MDj/m}^2 10^3$ )

Mahalliy aholining iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashishi uchun muqobil energiya manbalarini rivojlantirish bilan bir vaqtda energiyani tejaydigan texnologiyalarni yaratish ham juda muhim. Energiya hayot faoliyatining barcha sohalari – isitish, taom tayyorlash, sovutish, ishlab chiqarish jarayonlarida (masalan, sutni, mevalarni va h.k.larni qayta ishlash) zurrur. Energiyaning yo'qligi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, chiroqning o'chishi yozda muzlatgich qurilmasining ishlamasligiga, natijada mahsulotlar buzilishiga va moddiy zarar ko'rishga olib keladi. Buning natijasida biznes rentabelligining pasayishi mazkur hududning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun muhim bo'lgan bir qator salbiy jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Energiyaning yo'qligi, shu qatorda, tabiat tizimiga qo'shimcha bosim bo'lishiga olib keladi. U yoki bu sabablarga ko'ra energiyaning yo'q bo'lishi mahalliy aholi tomonidan o'tin sifatida daraxt va butalardan keng foydalanishga undaydi. O'simliklardan oqilona foydalanmaslik ekotizimlarning jiddiy yomonlashuvini keltirib chiqaradi. Iqlimning quruqligi ularni qo'shimcha harakatsiz tiklashga yo'l qo'ymaydi. Yerlarning yemirilishi, o'z navbatida, aholining farovon hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Bu kabi barcha jarayonlar iqlimning o'sib borayotgan qurg'oqchilligi natijasida kuchaymoqda.

Shuning uchun ham energiyaning tuganmas manbalariga ega bo'lish arid ekotizimlarga bo'ladigan bosimni kamaytiradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi va shu bilan birga normal turmush tarzini yaratishga turtki bo'ladi. Energiyaning muqobil manbalarini tatbiq qilish boshqa sabablarga ko'ra ham katta ahamiyatga ega. Lekin ular moslashish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun QTEM (qayta tiklanuvchi energiya manbai) ni tadbiq etish bugungi kunda dunyo mamlakatlarining energetik siyosatida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi turli xil ko'rinishdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirish bo'yicha yetarlicha boy tajribaga ega. Yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya olish bo'yicha amaliy ishlanmalar



o'tgan asrning elliginchi yillaridayoq boshlab yuborilgan. Mamlakatimizda muqobil energiya manbalarini aholining kundalik hayot tarziga tadbiq etishning juda katta imkoniyatlari bor - bular bir yildagi 360 quyoshli kunlar, tog' daryolari va kuchli shamol esuvchi hududlar. Diyorimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga tegishli qonunchilik bazasini rivojlantirish va mukammallashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda, aholi e'tiborini qayta tiklanuvchi energiya manbalariga qaratishga yo'naltirilgan informatsion kampaniyalar, ekologik aksiyalar, tanlovlar, matbuot anjumanlari va xalqaro tadbirlar o'tkazilmoqda.

Poytaxtimizda o'tkazilgan, ahamiyatga molik tadbirlardan biri qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish sohasida yetakchi tajribalar almashish bo'yicha o'tkazilgan Markaziy Osiyo mintaqaviy seminari bo'ldi. Tadbir tashkilotchilari O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Markaziy Osiyo qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha mintaqaviy markaz va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi.

Seminarda bir qator Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar elchixonalari, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, vazirliklar, idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari, O'zbekiston energetikasi va ekologiya sohasi olimlari va mutaxassislari ishtirok etdilar.

So'nggi 40 yil ichida organik yoqilg'i qazib olish hajmi insoniyat tarixida eng yuqori ko'rsatgichni tashkil etdi. Bugungi kunda dunyoda tabiiy yoqilg'idan foydalanish 12 mld tonna yoki kishi boshiga 2 tonna neftni tashkil etadi. Gaz, neft, ko'mir va uran hanuz asosiy energiya manbalari hisoblanadi. Agar ularni iste'mol qilish shunday sur'atda davom etsa, dunyoning neft zahirasi 45-50 yilga, tabiiy gaz zahirasi 70-75 yilga, tosh ko'mir zahirasi 165-170 yilga, kul rang ko'mir zahirasi 450-500 yilga yetadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari masalasini muhokama etish butun dunyoda bo'lganidek, mamlakatimizda ham dolzarbdir. Biz nima uchun an'anaviy energiya manbalaridan foydalanishni to'xtatib, qayta tiklanuvchi energiya

manbalariga o'tishimiz kerakligini yana bir bor eslatib o'tish foydadan holi bo'lmaydi. Ma'lumki, qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol energiyasi, gidro energiya, geotermal energiya, shuningdek sanoat, qishloq xo'jaligi va maishiy chiqindilardan olinuvchi biogaz) organik uglevodorodli energetik resurslardan foydalanishning muqobili bo'ladi. Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalarini energetik balansga keng tadbiiq etishni talab etadi. Bundan tashqari qayta tiklanuvchi energiya manbalari ijtimoiy muammolarni hal etishda, jumladan aholi bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ekologik toza, qimmat bo'lmagan va ishonchli energiya manbalarining yo'qligi inson salohiyati, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilib, ming yillik deklaratsiyasida aytib o'tilgan rivojlanish sohasida maqsadlarni qo'lga kiritish yo'lida asosiy to'siq hisoblanadi.

Energiya iste'molini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish masalalari juda zarur. Uglevorod resurslarini tejash, mamlakatning energetik xavfsizligini ta'minlash, shuningdek markaziy energiya ta'minotidan uzoqda joylashgan, tog' va cho'l hududlarida istiqomat qiluvchi aholini, respublikadagi mavsumiy ishchilar va ekspeditsiya a'zolarini issiqlik va ichimlik suvi bilan ta'minlashda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining muhimligini hisobga olgan holda mazkur soha rivojiga katta ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekistonda bir qator tashkilotlarning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llash ko'lamini kengaytirish, shu sohada milliy bozor va texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bir qator loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Agrar suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zosi Xolmurod Karimov, YeXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori janob elchi Derd Sabo, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi vitse-spikeri Boriy Alixanov, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologiya markazi ijrochi direktori o'rinbosari Benjamin Muur, Markaziy Osiyo mintaqaviy markazining qayta tiklanuvchi

energiya manbalari bo'yicha ijrochi direktori Majid Xodjaev o'z chiqishlarida bugungi kunda mazkur sohada yetarlicha tajriba to'planganligini ta'kidlab o'tdilar. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich katta sarf-harajatlarga qaramay qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatish va undan foydalanish o'z-o'zini tez oqlaydi. Bu birinchidan, energo tashuvchilar (geologik razvedka, qazib olish, transportda tashish) narxining ortishi, ikkinchidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari texnologiyalarining rivojlashi bu turdagi energiya raqobatbardoshligining ortishiga olib kelishi bilan bog'liq.

Odatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari yirik aholi yashash punktlari, sanoat korxonalarini va muassasalarining energiya iste'molini to'liq ta'minlay olmaydi. Mamlakatimizda, umuman Markaziy Osiyo mamlakatlarida uzoq va ekologik nochor hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish uchun yaxshi istiqbollari mavjud va bu ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy samara beradi.

So'zga chiqqan seminar ishirokkhilari energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va texnologiyalaridan foydalanish yo'lidagi to'siqlar, an'anaviy energiya manbalari bilan solishtirganda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining afzalliklari va istiqbollari, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng tadbiiq etish bo'yicha yetarlicha muvaffaqiyatli tajribalar mavjudligi va ular bilan o'rtoqlashish hamda shu sohada hamkorlikni kuchaytirish mumkinligini ta'kidlab o'tdilar. Bunda mintaqaviy markazlar, birinchi navbatda – Markaziy Osiyo qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha mintaqaviy markaz katta ahamiyatga ega bo'lib, u mazkur sohada mamlakatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, yangi loyihalar tashabbuskori bo'lib, xalqaro institutlar va donorlarni jalb etadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tadbiiq etish to'siqlari bo'yicha quyidagilar aytib o'tildi. Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng ko'lamda tadbiiq etishning to'xtab turishi birinchi navbatda texnik-iqtisodiy xarakterga ega. Masalan, narxlarning pastligi va solishtirma harajatlarning yuqoriligi, ya'ni boy neft va gaz zahiralarni ishlab chiqishning arzonligi qayta

tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkonini cheklaydi. Keyingi sabab qishloq aholisining sotib olish imkoniyatining yetarli emasligi va infratuzilma ob'ektlarini mablag' bilan ta'minlash uchun moliyaviy resurslar yetishmovchiligi. Shuningdek qishloq tumanlarini ijtimoiy, iqtisodiy va energetik rivojlantirish dasturining mavjud emasligi muqobil energiya manbalari rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'z navbatida tan olish kerakki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari qimmatligiga qaramay sezilarli ustunlikka ega va kelajakda o'z-o'zini to'liq qoplaydi. Bu qurilmalardan foydalanish tabiiy boyliklarimizni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va atrof-muhitga zarar keltirishdan saqlashga xizmat qilishi ko'pchilikka ma'lum. Ishonch bilan aytish mumkinki, so'nggi yillarda dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni ko'paytirishda sezilarli rivojlanishga erishildi.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va ularning qurilmalarini standartlashtirish va sertifikatsiyalash sohasidagi yetakchi tajribalarni, qishloq punktlarini energiya bilan avtonom ta'minlashga ko'mak berish va rivojlantirish uchun qonunchilik bazasiga tegishli masalalar ko'rib o'tildi.

O'z navbatida seminar ishtirokchilari bu kabi seminarlarni o'tkazish juda foydali ekanligini ta'kidlab o'tishdi. Seminarlarda yetakchi tajribalar bilan o'rtoqlashish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida hamkorlikni kengaytirishning qo'shimcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi.

Quyosh energiyasi – kelajak energiyasi nomli tadbirning o'tkazilishi Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashining 2010-yil may oyida Toshkentda o'tgan yillik majlisida ilgari surilgan Osiyo mintaqasida quyosh energetikasini rivojlantirish bo'yicha Osiyo taraqqiyot banki tashabbusi doirasida e'lon qilingan edi.

Osiyo quyosh energiyasi forumining mazkur yig'ilishida Osiyo, Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlaridan qariyb 300 nafar xalqaro moliya

institutlari, kompaniya va korporatsiyalar, ilmiy-tadqiqot markazlari vakillari, olimlar, soha mutaxassislari va ekspertlar ishtirok etdi.

Bunda O'zbekiston Markaziy Osiyoda quyosh energiyasini rivojlantirish borasida yetakchi mamlakat bo'lishi uchun zarur ulkan yer resurslari, quyoshli kunlarga, yuqori malakali va bilimli inson resurslariga ega ekanini ta'kidlandi. Shu bois quyosh energetikasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

## **1.2. Shamol energiyasidan foydalanish**

Energiya odamzotning, umuman hayotning mavjudligida muhim omillardan biri hisoblanadi. Energiya olish va uning yangi samarali usullarini ishlab chiqish ilm-fan rivojlanishi mobaynida asosiy yo'nalishlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

XIX asrdan boshlab insoniyat tomonidan energiya olishning asosiy manbai qazib olinadigan yoqilg'i hisoblanadi. Lekin uning to'xtovsiz kamayib borishi hamda yoqilganidan keyin atmosferada qoladigan chiqitlari va buning natijasida umumiy ekologik vaziyatning yomonlashuvi sababli yangi manbalarni o'zlashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Yadro energetikasining rivojlanishi hozircha shu kabi energetika qurilmalarini ekspulatsiya qilishning katta xavfi borligi natijasida rivojlana olmay turibdi. Oqimlar, geotermal suvlar, biomassalar energiyasidan foydalanish keng ko'lamda rivojlanmagan. Ayni paytda an'anaviy, lekin vaqtinchalik ikkinchi darajaga o'tib qolgan shamol va gel energetika kabi energiya olish usullari qayta tiklanmoqda.

O'zbekiston uchun energetik mustaqillikka erishish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda elektr energiyasining 90%i issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Ularni ishlatish jarayonida ancha miqdorda uglerod dioksidi ajralib chiqadi. Respublika tomonidan xalqaro hujjatlar, jumladan, Kioto protokoli bo'yicha majburiyatlarini bajarish yoqiladigan yoqilg'i miqdorini asta-sekinlik bilan kamaytirishni talab qiladi. Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishi muammosini ham hisobga olish kerak. Shunday qilib, tiklanadigan energiya resurslarini, xususan shamol va quyosh energiyasini

o'zlashtirish hozirgi kunda eng istiqbolli hisoblanadi. Bu esa O'rta Osiyodagi shamol energiya resurslarini tadqiq qilishning dolzarbligini belgilab beradi.

Respublikaning tekisliklarida juda ko'p shamol resurslari mavjud. Hududning shimoli-g'arbida, Qoraqalpog'istonda ko'pincha 5m/s dan yuqori tezlikdagi shamollar esishi kuzatiladi. Shuning uchun ushbu tezlikda ishlashni boshlaydigan shamol qurilmalari bu yerda taxminan 50% vaqt davomida ishlaydi. Markaziy tekis hududlarda shamol tezligi shimoli-g'arbiy va Orol oldiga qaraganda past va o'rtacha 3-4m/s ni tashkil qiladi.

Tog' oldi hududlarida shamol tezligining pasayishi kuzatiladi. Bu yerda shamol tezligi o'rtacha 2,0-2,5m/s ni tashkil etadi. Shuning uchun tog'oldi hududlarining katta qismida shamol energiyasi qurilmalari uzoq vaqt bo'sh turib qolishi mumkin. Tog'oldi hududlarining bazi yerlarida (Yangier, Bekobod, Chorvoq hududi va h.k.) shamol rejimi bir jihatdan kuchli shamollarning tez-tez takrorlanishi, boshqa jihatdan esa uzoq muddat tinch bo'lib turishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ushbu hududlarda shamol qurilmalarini bu yerda ancha samarali, ammo tekisliklarga qaraganda past unumdorlik bilan ishlaydigan quyosh energetikasi qurilmalari bilan birga qo'llash maqsadga muvofiq.

Tog' hududlari ularga kelib tushadigan shamol miqdoriga ko'ra bir tekis emas. Tog'larda shamolning o'rtacha tezligi tog'ning yopiq ichki havzalarida 1,0-1,5 m/s, baland tog'larning qoya hamda dovonlarida esa 5-6 m/s va undan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Tog' hududning katta qismida ular 2 m/s dan oshmaydi. Bundan tashqari, quyosh energiyasi qoyaning ekspozitsiyasi, uning tikkaligi va esayotgan shamol yo'nalishiga ko'ra joylashishiga bog'liq. Umuman olganda, tog' hududlari quyosh energiyasidan foydalanish uchun yaroqli hisoblanadi, lekin bu yerda bunday qurilmalarining ishlash samaradorligi tekislik va tog'oldilariga qaraganda pastroq bo'ladi. Bu yerlarning ko'pgina hududlarida shamol qurilmalaridan foydalanish undan ham kam samarali hisoblanadi. Baland tog'li ochiq qoyalar, qiyaliklar va dovonlar bundan mustasno.

O'zbekiston hududining katta qismida shamolning o'rtacha bir kecha-kunduzlik tezligi 5-8 yillik davriylikka ega. Bunday davrlar yilning barcha

mavsumlarida kuzatiladi. Lekin turli shamol energetika hududlari uchun ular turlicha davomiylikka ega.

Shamol energiyasi majmuidan foydalanish eng katta istiqbolga ega. Gel energetika qurilmalari, qanchalar turli-tuman va universal bo'lmasin, foydalanishda bir qator cheklanishlarga ega, ular faqat kunduzi ishlashlari mumkin. Ulardan farqli ravishda shamol energetika qurilmalari har qanday paytda ishlashi mumkin. Ular uchun zarur bo'lgan yagona shart – kerakli tezlikdagi shamolning mavjudligi. Shuning uchun gel-shamol energetik qurilmalari majmuasi O'zbekistonning deyarli butun hududida muvaffaqiyatli ishlashi mumkin. Faqat tog'lar o'rtasida yopiq o'ra tarzidagi va shamolga qiya joylashgan maydonlar (ya'ni shamol tezligi shu qadar pastki, bu yerlarda shamol energiyasidan foydalanish haqida gapirish befoyda) istisnodir.

Shu kunlarda Toshkent viloyatida quvvati 750 kVt bo'lgan shamol energiyasini ishlab chiqaruvchi Markaziy Osiyodagi birinchi tajriba qurilmasini barpo etish ishlari yakuniga yetmoqda.

U Bo'stonliq tumanidagi Yusufxona qo'rg'oni yaqinida ishlaydi. "CHirchiq GESi kaskadlari" UKning mutaxassisi Yevgeniy Kimning "Pravda Vostoka" nashriga bergan intervyusida aytishicha, 2010 yilda boshlangan birinchi bosqichda mahalliy meteorologik sharoitlarni o'rganish uchun meteomachta o'rnatilgan edi. Yil davomida anemometrik uskunalar to'xtovsiz o'n daqiqa tanaffus bilan meteorologik ma'lumotlarni yozib borgan. Ushbu ma'lumotlarga keyinchalik Germaniyada maxsus dastur bo'yicha ishlov berilgan.

2011 yil kuzida qurilish maydonchasida uchastkani vertikal rejalashtirish bo'yicha dastlabki ishlar olib borildi, uzunligi 400 metr bo'lgan olib boruvchi yo'l qurildi.

O'tkazilgan tender natijalari bo'yicha Xitoyning "Ksian elektrik injenering" kompaniyasi shamol generatorini barpo etish bo'yicha bosh pudratchiga aylandi. Shamol energiyasini ishlab chiqaruvchi qurilmani barpo etish va uskunalar yetkazib berishga kompaniya bilan 1 mln.840 ming dollarlik shartnoma tuzildi.

Ayni paytga qadar Xitoy tomoni texnologik uskunalarni yetkazib berdi, shamol qurilmasining poydevorini qurib bitkazdi, hozir esa montaj ishlarini olib bormoqda. Shamol generatorining balandligi 65 metrni, vintlarining aylanasi 50 metrni, minora asosining diametri esa qariyb to'rt metrni tashkil etadi. Qurilmaning umumiy og'irligi 112 tonnaga yetadi.

Bunday parametrlarga ega shamol energiyasi qurilmasi respublikada, umuman, Markaziy Osiyoda ilk bor barpo etilmoqda. U ishlab chiqaradigan elektr energiyasi O'zbekistonning umumiy energetika tizimiga qo'shiladi. Qurilma yiliga o'rtacha 1283 ming kVt/soat energiyani ishlab chiqaradi.

Qurilma foydalanishga topshirilishi bilan sohada shamol salohiyatidan foydalangan holda elektr energiyasini sanoat tarzida ishlab chiqarishning yangi usulini o'zlashtirish boshlanadi.

### **1.3.Biogazdan foydalanish**

Elektr quvvatini uzluksiz yetkazib berish mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Kichik va o'rta biznes o'z biznes jarayonlari va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini elektr quvvatidan izchil olib turgan taqdirdagina ishonch bilan rejalashtirishi mumkin. Elektr quvvati yetkazib berishdagi uzilish ishlab chiqarishdagi rejalashtirilmagan tanaffuslarga, shartnomalar bajarilmay qolishi, bozor va raqobatdagi ustunlikning yo'qolishi, pirovardida esa oxirigacha olinmagan foydadan ayrilishga olib keladi. Vaziyat qaltis tus olganda elektr quvvati yetkazib berishdagi uzilishlar biznesning barbod bo'lishi va sinishiga olib kelishi mumkin. Kichik va o'rta biznes sohasidagi jami yo'qotishlar milliy miqyosda mamlakatning katta miqdorda zarar ko'rishi hamda noxush ijtimoiy jarayonlar: ish o'rinlarini yo'q bo'lishi, kichik va o'rta biznes sohasida xizmat qilayotgan xodimlarning hayot darajasi yomonlashishi, mehnat migratsiyasi va hokozo tarzida namoyon bo'ladi. Aynan shuning uchun ham barqaror va ishonchli elektr manbasidan foydalanish imkoniyati mamlakat mintaqalaridagi biznes tuzilmalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq elektr quvvati izchil yetkazib berilishiga erishish ushbu muammoni hal



etishga kompleks yondashilganda, rentabellik va boshqaruv imkoniyatlari nuqtai nazaridan barcha usullar o'rganib chiqilgandagina mumkin bo'ladi. Masalan, elektr quvvatini undan samarali foydalanishni boshqarish orqali tejash mumkin.

Elektr quvvatinining mustaqil ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish imkoniyati ko'plab boshqa yaxshilangan elektr quvvati ta'minoti orasida dolzarb va real bo'lib qolmoqda. O'z ehtiyojlarimizni qondirish haqida gapiradigan bo'lsak, ushbu masalada biogaz ishlab chiqarish imkoniyati e'tiborni tobora ko'proq tortayotganini qayd etish joiz. Biogaz qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining elektr quvvatiga bo'lgan ehtiyojini butunlay qondirishi mumkin. Ushbu yo'nalish mamlakatimizda jadal rivojlanmoqda.

Iqlim o'zgarishi muammosi to'g'ridan to'g'ri insoniyatning qishloq xo'jaligi va chorvachilik faoliyati natijasida vujudga keladigan chiqindilardan ajraladigan zararli gazlar bilan bog'liq. Zararli gazlarning to'planish darajasini pasaytirish uchun organik chiqindilarni qayta ishlaydigan uskunalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kerak. Organik chiqindilarni tozalaydigan biogaz uskunalari bir vaqtning o'zida qayta tiklanadigan energiya manbai sifatida xizmat ko'rsatadi.

Zamonaviy biogaz qurilmalari turli xil parametrdagi metantenklar orqali avtomatik tarzda nazorat qilinadigan qimmat kompyuterlashtirilgan tizim bilan ta'minlangan. Bularga harorat, bosim, substratni aralashtirish vaqti kabi yuqori samarali metantenkalar, shuningdek, xavfsiz ishlaydigan biogaz uskunalarni kiritish mumkin. Bu turdagi uskunalarni o'rnatish uchun kompyuterlashtirilgan qurilmalar bilan ishlash tajribasi muhim. Yakka tartibdagi uskunalarda bu qulay emas. Shu sababli Farg'ona Politexnika instituti xodimlari tomonidan yakka tartibda boshqariladigan biogaz qurilmalarini avtomatik boshqaradigan dasturlashtirilgan mikroprotessorli tizim yaratilgan. Ushbu tizim biogaz qurilmalarining yakka tartibdagi xizmat ko'rsatishini yuqori darajada yengillashtiradi, mustaqil tartibda gaz, elektr va issiqlik energiyasi bilan fermer va shaxsiy xo'jalikda foydalanishni ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida bu tizim fermer va shaxsiy xo'jaliklarning biologik chiqindilarini utilizatsiya qilish va shu orqali yakka tartibda biogaz qurilmalardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

FarPI EME kafedra poligonida kafedra xodimlari tomonidan biogaz qurilmasi (BGQ) qurildi va 2011 yil aprel oyida ishga tushirildi. U silindr shaklidagi hajmi 5 kubometrli metantenkadan va tsilindr shaklidagi hajmi 4 kubometrli himoyalovchi gazgolder uskunasidan, biogazni haydovchi kompressorlar, kondensat namligidagi filtr va quvurlar tizimidan iborat. Metantenk substratni isitish tizimi, substratni havo bilan tortib olishga aralashtirish tizimi, o'lchov tizimi va biogazni haydash tizimlaridan iborat. Gazgolder biogazni to'plash va saqlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, biogaz qurilmasi organik chiqindilarni kislorod mavjud bo'lmagan (anaerob sharoitda) qayta ishlashga mo'ljallangan. Anaerob achitish yoki fermentlash reaktorining germetik idishida yoki metantenkada amalga oshiriladi. Achitish jarayonida asosiy komponenti yonuvchi metan bo'lgan biogaz ajralib chiqadi (tipik konsentratsiyasi 60%). Metantenkalarda achitish murakkab biokimyoviy jarayon bo'lib, uning sifati va oqib o'tish tezligi ajralayotgan biogazning hajmini aniqlaydi.

Biogazni jadal generatsiya qilishda metantenkadagi bosim haddan tashqari yuqori ko'rsatkichga yetishi mumkin. Shu sababli metantenkadagi bosimni avtomatik tarzda nazorat qilish biogaz qurilmasining aktual vazifasi hisoblanadi. 37°C haroratli va xomashyoni reaktorda o'rtacha 20 kun ushlab turilganda bir me'yorda ishlaydigan jarayonda hosil bo'ladigan biogaz miqdori 1 kg quruq moddaga 0,3-0,45 m<sup>3</sup> biogaz (60% metan) to'g'ri keladi. Biogazning eng past issiqlik chiqarish qobiliyati taxminan 6,6 kVt·s/m<sup>3</sup>ga teng.

Ishlab chiqilgan biogaz qurilmasining metantenkasiga gidrozatvor o'rnatilgan bo'lib, u har kuni metantenkaga substrat quyib turishga va metantenkada biogazning intensiv ajralishiga yordam beradigan optimal bosimni ushlab qolishga mo'ljallangan. Gidrozatvorli metantenkaning bir me'yorda ishlashi uchun yuqori darajadagi bosimni shunday berish kerakki, substrat gidrozatvor orqali oqib ketmasligi kerak. Quyi darajadagi bosim gidrozatvordagi substratning quyi darajasiga mos kelishi kerak. Metantenkadagi bosimni keyinchalik oshirish yoki kamaytirish to'plangan biogazning gidrozatvor orqali atmosferaga chiqishi yoki

gidrozatvor atrofidagi ish maydonining substrat bilan ifloslanishi kabi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, gidrozatvorning ish darajasi yuqori va quyi bosimning farqini aniqlaydi.

Gazgolder turli bosimda metantenk orqali generatsiyalashgan biogazni to'plashga imkon beradi. Gazgolderning mavjudligi iste'molchilarni gaz bilan ta'minlashni barqarorlashtiradi, bu bilan ularni doimiy bosimdagi biogaz bilan ta'minlab turadi.

Pnevmatik aralashtirishning mavjudligi substratning ustki qatlamida qobiq paydo bo'lishining oldini oladi va shu bilan substratning bu qatlami orqali biogazning bir tekis chiqishini ta'minlaydi. Ichki xarajatlar va qobiq hosil bo'lish jarayoni aralashtirish chastotasiga bog'liqdir. Har bir metantenka uchun aralashtirish vaqti va chastotasi alohida o'rnatiladi va ishlatilayotgan xomashyoga bog'liq bo'ladi.

## **2 BOB. NAMANGAN VILOYATIDA MUQOBIL ENERGIYA RESURSLARI**

### **2.1. Quyosh radiatsiyasi**

Ma'lumki, O'zbekiston cho'l zonasida, asosan subtropik kengliklarda, okeanlardan ichkarida joylashgan. Bu esa uning iqlimidagi ba'zi xususiyatlarni, chunonchi, Quyoshning ufqdan baland turib uzoq vaqt yoritib va isitib turishi hamda kam bulutli bo'lishini shakllantiradi. O'zbekiston ancha janubiy kengliklarda (taxminan  $37^\circ$  va  $45^\circ$  shimoliy kengliklarda) joylashganligi tufayli yozda Quyosh nuri ancha tik tushib (iyunda shimolda  $71\text{—}72^\circ$ , janubda  $760$  balandda turadi), uzoq vaqt nur sochib turadi. Qishda O'zbekiston shimolida quyosh  $21^\circ$ , janubida esa  $29^\circ$  burchak hosil qilib turadi.

Respublikamiz hududining shimoldan janubga  $8^\circ 25'$  cho'zilganligi tufayli Quyoshning nur sochib turish davri va u bilan bog'liq holda yalpi quyosh radiatsiyasining miqdori ham o'zgaradi. Shu sababli Toshkentda Quyosh yiliga o'rta hisobda 2889 soat nur sochib tursa, eng janubda joylashgan Termizda bu ko'rsatkich 3095 soatni tashkil etadi. O'zbekistonda yil bo'yi, ayniqsa, yozda xavo ochiq. bo'lib, bulutli kunlar juda kam. Shu tufayli respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlarining pishib yetishadigan davri xisoblangan may—oktyabr oylarida Toshkentda quyosh 1749 soat nur sochib tursa, Termizda bu 2012 soatga teng. Vaxolanki, bu ko'rsatkich Qohirada (taxminan  $30^\circ$  sh. k. joylashgan) etadi. Chunki Qohira O'rta dengizga yaqin bo'lganligi tufayli bulutli kunlar Toshkent va Termizga nisbatan ko'p bo'ladi. Binobarin, O'zbekiston quyoshli o'lka deb bejiz aytilmagan. O'zbekistonda yozda (iyun—avgust oylarida) Quyosh nur sochib turadigan davr nur sochishi mumkin bo'lgan davrning 84—95%ni, qishda (dekabr—fevral) esa 40—50%ni tashkil etadi.

O'zbekistonning tog'li qismida quyoshning nur sochib turish davri tekislikka nisbatan 600—700 soat kam bo'ladi: tog'larning 2000 m balandlik qismida Quyosh yiliga o'rtacha 2300—2500 soat nur sochib turadi. Buning asosiy sababi tog' yonbag'ri bo'ylab ko'tarilgan sari bulutli kunlarning ortib borishi, tog' yonbag'rining quyoshga nisbatan holati (ekspozitsiyasi)dir.

1-jadval

Yer sirtiga tushadigan to'g'ri radiatsiyaning kunduzgi va soatlik yig'indisi (kal/sm<sup>2</sup>)

Oylar	Soatlar																Kunlik yigindi
	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	
I				1	5	10	16	21	20	18	12	6	1				110
II			0	2	8	14	19	22	21	19	14	11	2	0			132
III		0	1	5	12	20	26	30	29	24	18	11	5	0	0		181
IV		0	6	12	21	28	35	39	37	32	26	19	10	4	0		269
V	0	3	10	21	31	42	49	54	53	50	38	26	16	7	2	0	402
VI	0	4	13	26	38	51	60	67	66	58	49	38	24	12	4	0	510
VII	0	3	11	24	37	51	60	67	66	58	49	38	24	12	4	0	504
VIII		1	8	20	34	50	56	63	62	57	47	34	20	8	1		461
IX		0	3	12	25	37	46	51	50	45	35	24	11	2	0		341
X			0	4	14	24	32	36	35	30	23	12	3	0			213
XI				2	7	14	20	22	21	19	13	6	1				125
XII				0	2	8	11	14	13	12	7	3	0				70

O'zbekistonda quyosh ufqdan baland bo'lganligi, bulutsiz kunlarning ko'pligi (Toshkentda bir yilda 90 kun, Termizda esa 57 kun bulutli bo'ladi), oqibatida quyosh uzoq vaqt nur sochib turganligi tufayli uning hududiga ko'p yorug'lik energiyasi (issiqlik) tushadi. Respublikamiz shimoliy qismida har sm<sup>2</sup> yuzaga yiliga 136—140 kilokaloriya issiqlik, ya'ni radiatsiya tushsa, janubiy qismiga 160 kilokaloriya issiqlik tushadi. Yalpi quyosh radiatsiyasining miqdori yil bo'yi bir xil taqsimlanmagan. Eng ko'p quyosh radiatsiyasi yoz oylariga (qish oylariga nisbatan 5 marta ko'p) to'g'ri keladi. Eng kam tushadigan radiatsiya qish oylariga to'g'ri keladi. Ayniqsa dekabr oyida eng kam radiatsiya tushadi.

Sochilgan radiatsiyaning kunduzgi va soatlik yig'indisi (kal/sm<sup>2</sup>)

Oylar	Soatlar																Kunlik yig'indi
	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	
I				1	5	9	12	13	13	12	9	6	2				82
II			0	3	8	13	16	19	19	17	13	6	4	0			118
III		0	2	7	12	17	20	22	21	20	17	12	7	3	0		160
IV		1	6	11	16	19	22	25	25	23	20	16	11	5	1		201
V	0	3	8	13	17	18	21	22	22	21	19	16	12	8	2	0	202
VI	1	5	9	13	15	16	17	18	18	18	17	16	14	10	5	1	193
VII	0	4	9	12	14	15	16	16	16	16	16	14	12	9	5	0	174
VIII		2	7	11	13	15	16	16	16	15	14	13	11	7	2		158
IX		1	5	10	14	15	16	16	16	15	15	12	9	4	1		149
X			2	8	11	14	15	16	16	15	13	10	6	1			127
XI				3	7	10	12	13	13	11	9	6	2				86
XII				1	5	8	11	12	12	10	8	4	1				72

Jadvaldan ko'rinib turibdiki sochilgan yani tarqoq radiatsiya viloyatimiz hududida bahor oylarida katta miqdorni tashkil etadi.

Bunga sabab bahor faslida bulutli kunlarning ko'p bo'lishi natijasida quyoshdan kelayotga nurning yer yuziga yetib kelmasdan bulutlarga urilib qaytib ketishiga olib keladi. Ayniqsa aprel va may oylarida tarqoq radiatsiyaning kunlik yig'indisi 201-202 kal/sm<sup>2</sup> ni tashkil etadi.

Shuning uchun ham viloyatda quyosh radiatsiyasidan foydalanish uchun bahor faslida emas yoz faslida yaxshi natijaga erishish mumkin.

To'ri radiatsiyaning miqdori yozda iyun, iyul, avgust oylarida yuqori bo'ladi. Ayni shu vaqtda quyosh radiatsiyasidan foydalanilsa aytarli natijaga erishish mumkin. Lekin quyosh energiyasidan foydalanish juda ham katta mablag' talab etganligi uchun ham uning rivojlanib ketishi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Quyosh energiyasi ekologik jihatdan eng tozaligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Yig'indi radiatsiyaning kunduzgi va soatlik yig'indisi (kal/sm<sup>2</sup>)

Oylar	Soatlar																Kunlik yigindi
	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	
I				2	10	19	28	34	33	30	21	12	3				192
II				5	16	27	35	41	40	36	27	17	6	0			250
III		0	3	12	24	37	46	52	50	44	35	23	12	3	0		341
IV		1	12	23	37	47	57	64	62	55	46	35	21	9	1		470
V	0	6	18	34	48	60	70	76	75	71	57	42	28	15	4	0	604
VI	1	9	22	39	53	67	77	85	84	76	66	54	38	22	9	1	703
VII	0	7	20	36	51	66	76	83	82	74	65	52	36	21	9	0	678
VIII		3	15	31	47	65	72	79	78	72	61	47	31	15	3		619
IX		1	8	22	39	52	62	67	66	60	50	36	20	6	1		490
X			2	12	25	38	47	52	51	45	36	22	9	1			340
XI				5	14	24	32	35	34	30	22	12	3				311
XII				1	7	16	22	26	25	22	15	7	1				142

Hatto O'zbekistonning janubida iyulda radiatsiya balansi 20 kkal/sm<sup>2</sup>ga yetadi. Bunga sabab yozda quyosh ufqdan balandda turib, uzoq vaqt yoritib, isitib turishidir. Aksincha, qishda quyosh nuri yotiq tushadi, bulutli kunlar ko'p bo'lganligidan kam yoritadi, qor qoplaminin mavjudligi tufayli albedo katta bo'ladi. Natijada qishda, xususan yanvarda yalpi radiatsiya miqdori O'zbekistonning markaziy va janubiy qismida musbat bo'lib, bir sm<sup>2</sup> yuzaga 0,1—1,0 kkal.ni tashkil etadi. Lekin respublikamizning eng shimoli-g'arbiy qismida (Ustyurtda) ba'zi yillarda qishda radiatsiya balansi manfiy bo'lishi mumkin.

## 2.2. Shamol energetikasi

Namangan viloyatidagi shamol rejimi atmosfera bosimi rejimidek barik maydon va O'rta Osiyoda rivojlanadigan sinoptik jarayonlar xususiyatlar bilan belgilanadi.

Yil davomida shimoliy yo`nalishdagi shamollar (24-34%) shimoliy-sharqiy va shimoliy shamollar (7-19%) garbiy (5-11%) va janubiy shamollar (5-11%) esib turadi. Yozgi mavsumga janubiy shamol kuchining oshishini va shimoliy shamol kuchining kamayishini kuzatish mumkin.

Namanganda shamolning eng yuqori o`rtacha yillik tezligi shamolni janubiy-g`arbiy (3,5 m/s) va g`arbiy (3,2 m/s) yo`nalishlarida kuzatiladi (4-jadval).

Shimoliy shamolni ortacha tezligi (2,7m/s) janubiy garbiy shamoldan pastroq. Eng kam shamol tezligi shamolni janubiy - sharqiy yo`nalishda (1,8 m/s) kuzatiladi.

Shamolni o`rtacha oylik tezligi yil davomida dekabrda 1,8 m/s dan mayda 3,3 m/c gacha o`zgarib turadi. Ba`zi yillarda bahor oylarida shamolning o`rtacha tezligi 4 m/s va undan ortiqroq bo`ladi.

Namangan viloyatida yil davomida asosan kuchsiz shamollar kuzatiladi (5-jadval). Yil davomida kuchsiz shamollarning takrorlanishi dekabr oyida 61,4 % ni va yanvarda 62,3 % ni tashkil etadi. Bahor oylarida va yozning boshlanishida bu shamollarning takrorlanishi kamayib, shamolning tezligi 2 m/s ga yetadi. Shamol tezligining 5 m/s dan ortishi bahor oylarida kamroq kuzatiladi (4,5-4,8 %). 10 m/s va undan yuqori tezlikdagi shamollarning takroriyiligi kam. Kuchli shamollar (15 m/s va undan ortiq) o`rtacha yil davomida 24 kun kuzatiladi. Ayrim yillari uning takroriyiligi ortishi mumkin. Shamolning eng yuqori tezligi 30 m/s ga ko`tarilishi va uning ko`rsatkichi 17 dan 30 m/s gacha o`zgarib turadi (5-jadval).

Shamol energiyasi majmuidan foydalanish eng katta istiqbolga ega. Gel energetika qurilmalari, qanchalar turli-tuman va universal bo`lmasin, foydalanishda bir qator cheklanishlarga ega, ular faqat kunduzi ishlashlari mumkin. Ulardan farqli ravishda shamol energetika qurilmalari har qanday paytda ishlashi mumkin. Ular uchun zarur bo`lgan yagona shart – kerakli tezlikdagi shamolning mavjudligi. Shuning uchun gel-shamol energetik qurilmalari majmuasi O`zbekistonning deyarli butun hududida muvaffaqiyatli ishlashi mumkin. Faqat tog`lar o`rtasida yopiq o`ra tarzidagi va shamolga qiya joylashgan maydonlar




(ya'ni shamol tezligi shu qadar pastki, bu yerlarda shamol energiyasidan foydalanish haqida gapirish befoyda) istisnodir

#### 4-jadval

Turli yo'nalishlarda shamolning o'rtacha tezligi  $\bar{v}$  m/s va takroriyliги P (%)

Oylar	Ko'rsat- kichi	Sh	ShShq	Shq	JShq	J	JG'	G'	ShG'	Shtil
I	P	33	13	10	7	7	8	6	16	32
	$\bar{Y}$	2,3	2,4	1,8	1,6	1,6	2,3	2,1	2,3	
II	P	30	16	13	8	6	9	7	11	26
	$\bar{Y}$	2,7	2,3	2,2	1,8	1,7	3,0	2,8	2,5	
III	P	26	16	14	8	6	12	10	8	21
	$\bar{Y}$	3,1	2,5	2,3	2,0	2,2	4,1	3,6	2,5	
IV	P	24	16	14	8	8	13	11	6	22
	$\bar{Y}$	3,0	2,4	2,2	2,0	2,2	4,8	4,2	2,8	
V	P	22	17	17	10	8	14	7	5	22
	$\bar{Y}$	3,2	2,6	2,4	2,0	2,3	5,1	4,3	3,0	
VI	P	25	17	16	12	9	10	6	5	21
	$\bar{Y}$	3,4	2,6	2,3	2,1	2,2	4,6	4,2	3,7	
VII	P	24	16	19	13	9	8	5	6	25
	$\bar{Y}$	2,8	2,2	2,1	1,9	2,2	3,4	3,0	3,0	
VIII	P	26	14	15	13	11	9	5	7	25
	$\bar{Y}$	2,3	1,9	1,9	1,7	2,0	3,2	3,0	2,5	
IX	P	26	10	9	10	13	11	7	14	26
	$\bar{Y}$	2,3	1,9	1,8	1,8	2,0	3,1	2,7	2,4	
X	P	31	8	7	6	9	11	6	22	24
	$\bar{Y}$	2,5	1,9	2,0	1,6	2,1	3,3	3,1	2,5	
XI	P	34	9	10	6	6	10	6	19	24
	$\bar{Y}$	2,3	2,0	1,8	1,5	1,8	3,1	3,1	2,6	
XII	P	32	11	11	7	7	9	6	17	30
	$\bar{Y}$	2,3	1,9	1,7	1,5	1,7	2,5	2,5	2,2	
Yil	P	28	14	13	9	8	10	7	11	25
	$\bar{Y}$	2,7	2,2	2,1	1,8	2,0	3,5	3,2	2,7	



2-rasm. Shamol yo'nalishining takroriyliги (%)

Shamol tezligining turli gradatsiyada takroriyliigi (%)

Oylar	Tezlik gradienti, m/s										
	0-1	2-3	4-5	6-7	8-9	10-11	12-13	14-15	16-17	18-20	≥21
I	62,3	30,2	6,3	0,8	0,2	0,1	0,02	0,02		0,02	
II	54,2	33,4	9,0	2,4	0,5	0,1	0,2	0,1	0,1	0,1	
III	49,6	32,2	10,6	4,5	1,4	0,5	0,4	0,2	0,2	0,2	
IV	49,3	30,3	11,7	4,5	1,6	0,4	0,6	0,3	0,7	0,3	
V	49,2	28,5	13,3	4,8	2,0	0,5	0,6	0,2	0,6	0,1	0,1
VI	48,2	30,8	13,0	4,3	1,5	0,7	0,5	0,2	0,4	0,2	
VII	55,6	31,1	9,3	2,6	0,6	0,2	0,2	0,02	0,2		
VIII	58,5	31,3	8,2	1,4	0,4	0,2	0,2	0,1	0,02	0,02	
IX	56,6	33,7	8,0	1,2	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,02
X	52,1	34,8	10,6	1,6	0,6	0,2	0,1	0,2	0,2	0,1	
XI	55,7	33,8	8,5	1,1	0,2	0,1	0,1	0,2	0,2	0,1	
XII	61,4	30,3	6,8	1,0	0,2	0,1	0,1	0,02	0,2	0,02	
Yil	54,4	36,7	9,6	2,5	0,8	0,3	0,2	0,1	0,2	0,1	0,02

Kuchli shamollarning ( $\geq 15$  m/s) turli yo'nalishlardagi takroriyliigi (%)

	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Yil
SH		6	2		12	20						4
SHSHq		5			4	20						2
SHq				3	4							1
JSHq					4							1
J									21			2
JG'	80	50	65	60	46	50	100	71	43	59	83	59
G'	20	39	28	27	21			29	36	33	17	27
SHG'			5	3	9	10				8		4

Yil davomida kuchli shamol ( $\geq 15$  m/s) janubiy-g'arbiy yo'nalishdan esadi (6-javdal). 20 m/s va undan yuqori tezlikdagi shamol g'arbiy va janubiy-g'arbiy yo'nalishdan kuzatilgan (6-jadval).

Shamol tezligining sutkalik o'zgarishi tungi soatlarda ortadi. Qish oylarida (yanvar) tebranish amplitudasi 0,5 m/s tashkil etsa, bahor oylarida uning ko'rsatkichi biroz ko'tariladi va yozda (iyul) 14 m/s ga teng bo'ladi.

### **2.3. Biogaz olish imkoniyatlari**

Keyingi yillarda dunyo miqyosida vujudga kelgan global iqlim o'zgarishi, cho'llanish va shu kabi boshqa ekologik muammolarni ijobiy hal etishda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda ham ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, yaqinda O'zbekiston Fanlar akademiyasida o'zbek va nemis olimlari hamkorligida muqobil energiya sohasi bo'yicha xalqaro forum o'tkazildi. Forum ishtirokchilari O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha imkoniyatlarini yuqori baholab, bu borada olib borilayotgan ishlar yuqori darajada yo'lga qo'yilganini qayd etishdi. Shu bilan bir qatorda Germaniya korxonalarini quyosh batareyalari va shamol elektr stantsiyalari ishlab chiqarishda yetakchilardan ekanligi takidlandi.

Hozirda muqobil energiya manbalari orasida biogaz ishlab chiqarish borasidagi izlanishlar ham jadal olib borilmoqda. Ma'lumki, yangi hosil bo'lgan organik o'g'itlar (go'ng) chiritilmasdan dalalarga chiqarilganda zararli mikroblar bilan tuproq, yer osti suvlari, atmosfera havosi ifloslanadi. Xususan, 1 tonna go'ngning chirish jarayonida atmosfera havosiga 300-400 m<sup>3</sup> metan gazi, ammiak, serovodorod kabi zaharli gazlar ajralib chiqadi. Aytish joizki, go'ng va qishloq xo'jalik chiqindilarini maxsus qurilmalarda biogaz va bioo'g'it olish maqsadida qayta ishlash ushbu muammolarni hal etishning istiqbolli, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan foydali yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ayni paytda Qorovulbozor tumanidagi «Istiqlol» fermer xo'jaligidagi 0,15 gektarli issiqxonada aynan ushbu energiya vositasidan foydalanib kelinmoqda.

Ta'kidlash o'rinliki, barcha fermer xo'jaliklari va qo'ychilik otarlarida biomassa energiyasidan foydalanish imkoniyati bor. Bunday o'g'itning 1 kilogrammi o'zining samaradorligi jihatidan 100 kilogramm oddiy go'ngga tengdir. Hosil bo'lgan 1 m<sup>3</sup> biogazdan 2 kilovatt soat elektr energiyasi olish mumkin. Biogaz texnologiyasidan foydalanish, shuningdek, mazut, ko'mir, gaz, elektr energiyasini tejash, atrof-muhit ifloslanishning oldini olish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, biogumus havza baliqchilik xo'jaligida o'g'it sifatida foydalanilganda baliqlar ozuqasi bo'lgan fitoplankton, zooplankton biomassasini oshirib, baliqlar mahsuldorliginihg 2-3 barobar ko'payishi tajriba asosida isbotlangan. Ayniqsa, inkubatsiya tsexlari oldida biogumus olish texnologiyasi joriy qilinsa, avvalambor, elektr energiyasi iqtisod qilinib, oziq manbai ko'payadi. Xususan, havzada 1 tonna go'ng o'rniga 10 kilogramm biogumusdan foydalaniladi.

Biogaz texnologiyasini qishloqlarda joriy qilish integratsiyalashgan tizim sifatida foydalanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Shuningdek, qishloqdagi alohida xo'jaliklarni yoqilg'i va yuqori sifatli ekologik toza o'g'it bilan ta'minlashda ham muqobil energiya vositalarining o'rni beqiyos.

Turli mamlakatlarda energiyaning muqobil manbalari samarali tarzda ishlayotganligini eshitib yaqin-yaqinlargacha fuqarolarimiz nega bu narsa bizda yo'q deb ajablanardilar. Bugungi kunda zamonaviy energetika texnologiyalari bizning diyorumizda ham sekin-asta o'z o'rnini topa boshladi. Chorvachilik ishlab chiqarishi chiqindilari asosida ishlaydigan biogaz qurilma GEFning kichik grantlar dasturi (KGD) loyihasi doirasida barpo etilgan. Uning qimmatli tomoni shundaki, mazkur qurilma fermerlarga o'zini o'zi tashqi omillardan mustaqil bo'lgan barqaror energiya bilan ta'min etish imkoniyatini beradi. Ular bu energiyadan isitish hamda elektr ta'minoti uchun foydalanishlari mumkin.

Biomassadan energiya manbai sifatida foydalanishga qiziqish eng avvalo, biomassaning har yili qaytadan paydo bo'lishi; biogazda yig'ilgan energiyaning saqlanishi va uzoq muddat davomida xohlagan holatda ishlatilishi mumkinligi; bu

energiyani boshqa turdagi energiyaga aylantirish mumkinligi; ba'zi mintaqalarda issiqlikni bu manbai tabiiy issiqlik manbalaridan arzonroq turishi; biogazning ekologik toza issiqlik manbai ekanligi; undan foydalanganda atrof-muhitda oltinugurtning zaharli oksidlari paydo bo'lmasligi, atmosferadagi karbonat anhidrid balansining o'zgarishligi va boshqa qator sabablar bilan uzviy bog'liqdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, biogaz ishlab chiqarishning tannarxi biogaz qurilmasi muayyan firmada paydo bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasining bir qismi sifatida qabul qilingan. Bu jarayonda biogazdan tashqari qimmatbaho, samarador biologik o'g'it hosil bo'lishi va boshqa bir qator ijobiy tomonlarni hisobga olinganda bu biotexnologiyaning istiqbollari namoyon bo'ladi.

AQSHda go'ngdan biogaz olishga alohida e'tibor berilishining asosiy sabablari energetik maqsadlar bilan birga barcha chorvachilik fermalarida, ayniqsa yirik chorvachilik komplekslarida, (yirik shoxli hayvonlar, cho'chqalar va parranda boquvchi komplekslarda) har yili paydo bo'ladigan chiqindilarni biogazga aylantirilishining iqtisodiy va ekologik maqbulligidir.

Germaniya chorvachiligida har yili 200 mln t, shu jumladan 70 mln.t suyuq holatda go'ng to'planadi. Bu mamlakatda qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan maydonlarni chegaralanganligi, atrof-muhit muhofazasi talablarining tobora kuchayib borishi mutaxassislar oldiga chiqindilardan samaraliroq foydalanish yo'llarini izlab topishdek muammoni ko'ndalang qo'ygan. Mutaxassislarning hisob-kitobiga qaraganda, yuqorida ko'rsatilgan miqdordagi go'ng biogaz qurilmalarida qayta ishlanganda energiyaga bo'lgan umummilliy talablarning 4% ga teng bo'lgan miqdorda energiya olish mumkin bo'lar ekan.

Buyuk Britaniyada tabiiy gazga bo'lgan talabning 3,2% biogaz orqali qondiriladi. Umumiy yirik shoxli hayvonlar, cho'chqalar va parrandalar go'ngini qayta ishlanganda har yili 2,3 mln t neftga ekvivalent bo'lgan gaz ishlab chiqarish mumkin ekan.

Yaponiyaning qishloq xo'jaligida har yili 56,5 mln t go'ng oqavalari hosil bo'ladi. Bu miqdordagi go'ngni to'lig'icha qayta ishlanganda 1,7 mlrd m<sup>3</sup> gaz yoki

1 mln tonna neft o'rnini bosa oladigan energiya to'planar ekan. Bu mamlakatda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni jadal rivojlantirish dasturi asosida faoliyat olib borilib, bu texnologiyaga alohida e'tibor berilmoqda.

Rossiyada ham biogaz ishlab chiqarish bo'yicha katta potentsial mavjud. Har yili chorvachilik fermalarida 665 mln t go'ng hosil bo'ladi: buni har bir tonnasidan anaerob sharoitda bijg'itish orqali issiqlik chiqarishi 5600-6300 kkal/m<sup>3</sup>ga teng bo'lgan 15-20 m<sup>3</sup> biogaz ishlab chiqarish mumkin.

Hindiston energetika siyosatining asosiy printsiplaridan biri - qishloq rayonlarida biogaz ishlab chiqarishdir. Bu sohaga oid fundamental va amaliy izlanishlar ko'proq Hindiston texnologiya institutining biokimyoviy muhandislik markazida olib boriladi. Bu mamlakat olimlarining fikricha, har yili to'planadigan 300 mln t qoramol go'ngini biogazga aylantirilganda, 33 mln t neft energiyasiga teng bo'lgan energiya to'plash mumkin (0,11 t neft energiyasi 1 tonna go'ngdan olinadigan energiyaga teng). Bugungi kunda Hindistonda 1 mln dan ko'proq kichik biogaz ishlab chiqaradigan qurilmalar ishlab turibdi.

Biogazdan foydalanish Xitoyda juda ham rivojlangan. Bu mamlakatda 200 mln dan ko'proq qurilmalar ishlaydi. Shunisi e'tiborga sazovorki, mamlakatda daydjestrlardan foydalanishni nazorat qilish organlari tashkil etilgan. Alohida yashovchi har bir oilada daydjestrlar o'rnatilgan, ayniqsa shahar joylardan uzoq joylarda, chorvachilik va parrandachilik fermalarida, kichik ishlab chiqarish korxonalarida bunga e'tibor katta. Biogaz tayyorlash texnologiyasi Fillipinda, Gvatemalaeda, Isroilda keng tarqalgan.

Doimiy (to'xtovsiz) metanizatsiya jarayonini chorva mollari va parrandalari chiqindilaridan tashqari, organik modda saqlovchi xilma-xil chiqindilarda ham amalga oshirilsa bo'ladi. O'zbekistonda har yili 4 mln. tonnaga yaqin g'o'zapoya, shuncha somon, 150 ming tonna sholi poyasi, million tonnalab har xil boshqa chiqindilar (kanalizatsiya, ishlab chiqarish, chorvachilik va parrandachilik axlatlari va hokazo) to'planadi.

Mana shularni biogazga aylantirilganda qanchalik iqtisodiy samara olishni hisoblab chiqish qiyin emas. Ko'plab miqdordagi mablag' sarflab, temir quvurlar

tortib, uzoq qishloqlarga gaz o'tkazgandan ko'ra, biogaz tayyorlashni yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Afsuski, hozircha bu biotexnologiya e'tibordan chetda qolib turibdi.

«Nadejda» fermer xo'jaligi 2000 yili tashkil etilgan bo'lib, sobiq «2-Farhod» fermer xo'jaligi hududida joylashgan. Bu yerda chorvachilik bilan shug'ullanishadi – 50 bosh sigir va 100 bosh cho'chqa boqilmoqda. Chorva mollarni ozuqa, yem-xashak bilan ta'minlash uchun ijaraga olingan 12,5 gektarlik yerda beda yetishtirilmoqda. Xo'jalikdagi jami ishlarni 5 kishi uddalamoqda. Ular 1 yilda bolalar bog'chalariga 15 tonna sut yetkazib beradilar, toshkentlik tadbirkorlarga kolbasa mahsulotlari tayyorlash uchun 7 tonna go'sht sotadilar.

Fermer xo'jaligi a'zolarida energiyani muqobil turlariga qiziqish tasodifan tug'ilmadi. Bu yerda gaz va elektr energiyasi ta'minotida tez-tez uzilishlar bo'lib turardi. Bu hol ro'zg'orni shinam qilish, biznes ishini rivojlantirishda muammolar keltirib chiqarardi. Ana shunday kezlari odamlar odatiy energiya o'rni bosadigan yo'llarni qidiradilar, isitish asboblariidan foydalanadilar. Ammo isitish asboblariidan foydalanish qimmatga tushadi, o'tin-ko'mir ham hazilakam xarajat talab etmaydi. Qolaversa dov-daraxtlarni noqonuniy kesish hollariga sabab bo'lishi ham mumkin.

Biogaz hosil qiluvchi qurilma «Nadejda» fermer xo'jaligi energetika bobida mustaqillikka erishishi masalasini hal etdi. Xo'jalik a'zolari energiyani muqobil manbalariga oid axborot izlab GEFning kichik grantlar dasturiga murojaat qildilar. Ular isitish va elektr ta'minoti uchun biogaz qurilmadan foydalanish borasidagi loyihada ishtirok etishlari mumkinligini ham shu yerda bilib olishdi. Bu imkoniyatdan foydalanishni ular paysalga solib o'tirmadilar. Natijada 3 yil oldin qo'shimcha moliyalashtirish sharoitida biogaz qurilma barpo etish uchun KGD grantini olishga muvaffaq bo'ldilar. Rejani amalga oshirishga «Nadejda» fermer xo'jaligi qo'shadigan hissa loyiha qiymatining 50 foizini tashkil etdi. Hozir loyiha bo'yicha ishlar yakuniga yetkazilgan. Zamonaviy texnologiya xo'jalikni gaz bilan ta'minlamoqda; shunday gazdan elektr energiyasi hosil qilish uchun foydalanish ishlari oxirlab qoldi. Tanishuv sayli ishtirokchilariga biogaz asosidagi elektron



ta'minot tizimi kompleksning xonalaridan birida qanday ishlayotganligini namoyish qilib ko'rsatishdi.

